

SALLA VA DO'PPI MOHIYATI

*Murtazoyev Arabxon Avazxon o'g'li
Toshkent Islom Institut 4 - bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musulmonlarning kiyinish madaniyati, xususan salsa va do'ppi kiyish an'analari shar'iy va tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Islomda tashqi poklikka e'tibor berilgani, salsa kiyishning diniy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, bu kiyim turi Rasululloh ﷺ davridagi urf-odatlarga bog'liq ekani tushuntiriladi. Maqolada salsa va do'ppi kiyishga oid hadislar, ulamolar fikrlari va zamonaviy fatvolar keltirilib, bosh kiyimning musulmon shaxsiyati va milliy madaniyatdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Islomiy kiyinish, salsa, do'ppi, hadis, urf-odat, musulmon madaniyati, bosh kiyim, shar'iy kiyim, fatvo, sunnat.

Kirish:

Islom dinining ikki asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni Karim va hadislar musulmonlarning e'tiqodi, ibodati, axloqi hamda kundalik hayotini tartibga soluvchi mustahkam asoslardir. Ulamolar Qur'on oyatlarini to'g'ri tushunish va ularni amaliy hayotda tatbiq etish uchun Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so'zлari va amallariga, ya'ni hadislariga murojaat qilishgan. Shu bois, hadis ilmi asrlar davomida chuqur o'rganilib kelinmoqda va har bir mavzudagi hadislarning isnod va matn jihatdan tahlili alohida ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Musulmon kishining kiyinish odobi, tashqi ko'rinishi ham islomiy qadriyatlarning bir qismidir. Shulardan biri – salsa kiyish amali bo'lib, bu nafaqat tashqi bezak balki sunnatga muvofiq amaldir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning salsa kiyiganliklari, u haqida aytgan so'zлari va uni targ'ib qilganlari to'g'risida sanadi jihatdan zayif bo'lsa ham, adad jihatdan juda ko'p hadislar rivoyat qilingan. Ushbu hadislar islomiy kiyinish madaniyatining shakllanishida va salsa amalining sunnat maqomiga ega bo'lishida asosiy o'rin tutadi.

Salla va do'ppi

Musulmonlar doimo ust-boshlariga pokiza va viqor beradigan kiyimlar kiyib keladi. Islom dini, ham tashqi, ham ichki poklikni shari'at talablariga muvofiq joriy qilgan. Alloh taolo go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi. Salla ana shu tashqi ko'rinishdagi go'zallikning bir qismi bo'lib, boshqa kiyimlarga qaraganda o'ziga xos madaniyatni anglatadi. Salla musulmonlarning uzoq tarixga ega bosh kiyimi hisoblanadi. U boshga o'raladigan mato bo'lib, kishilar uni vaziyatga va jamiyatdagi urfga ko'ra o'rab yurishgan. Garchi uni o'rashning bir necha usullari mavjud bo'lsa ham, ma'lum shakli va rangi talab qilinmaydi.

Salla issiqdan, sovuqdan va chang to'zondan himoyalananadigan bosh kiyimi bo'lib, bu haqda mashhur tobe'iyn, «Nahv» fani asoschilaridan biri Abulasvad Duvaliy aytgan: “Salla jangda qalqon, issiqda soyabon, sovuqdan himoya, voizga viqor, turli tasodiflardan saqlovchi, inson qomatiga ziynatdur”. Qadimdan salsa erkaklarning muruvvatini va qavm orasidagi obro'-e'tiborini bildirgan. Hatto hazrati Umar roziyallohu anhu, salsa arablarning tojidur, deganlar. Salla kiyish borasida kelgan hadislar shari'at talab darajasida joriy qilishga etadigan quvvatli emas, lekin Rasululloh alayhissalomning qavmlari odatiga ko'ra salsa o'raganliklari siyratlari va kundalik holatlari borasida kelgan rivoyatlarda aytilgan bo'lib, ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz: **Ibn Umar roziyallohu anhudan Nabiy alahissalomgacha etib borgan sanad bilan rivoyat qilingan hadisda:** “**Sallalarni lozim tutinglar, zero bu farishtalarning siymosidur va uning peshini ortingizga tashlab olinglar**”, deb marhamat qilganlar.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilingan hadisda Nabiy alahissalom: “Salla kiyinglar, halimligingiz ziyoda bo'ladi”, deb marhamat qiladilar.

Salla o'rash borasida O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo markazi 833-cavolga javob bergen. Javobda shunday deyilgan:

“O'tmishda ahli ilm va fazilatli kishilar va ko'pchilik ma'rifatparvar ajdodlarimiz sallada yurishni odat qilganlar. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Rasuli akram alayhissalomning ushbu kiyinish odatlari shari'at buyrug'i sifatida qabul qilinmagan. Biror bir olim salsa kiymagan kishi gunohkor bo'lishini aytmagan. Balki, Islom kelganida erkaklar sallada yurishlari urf-odatlardan biri bo'lib, bu borada kofir ham musulmon ham barobar bo'lgan. Bu haqda Iordaniya fatvo hay'ati ulamolari shunday deyishadi:

“Payg'ambarimiz alayhissalomning salsa kiyishlari va hassa tutishlari odatiy fe'llaridan bo'lib, o'sha zamон arablarining urflariga binoan qilinar edi. Bu ishlar mustahablikka dalolat qiladigan va odamlar o'rnak oladigan shar'iy hukmlardan emas”.

Bosh kiyimlaridan yana biri bu do'ppidir. Har bir millatning o'ziga xosligini bildirib turuvchi libosi bo'lib, millatning madaniyati va ba'zi o'rirlarda diniga ham dalolat qiladi. Shuning uchun ham har bir millat o'zligini saqlab qolish uchun milliy kiyimlar, milliy urf-an'analar, bayramlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Ayniqsa bosh kiyim boshqa liboslardan ko'ra o'ziga xos o'ren tutadi, chunki inson tanasidagi a'zolar ichida bosh eng aziz a'zo hisoblanadi. Shu e'tibordan bosh kiyimni oyoq ostida qolib ketmasligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shar'iy kitoblarimizga ham do'ppi masalasi kiritilgan bo'lib, ulamolarimiz ba'zi oyatlar va hadislardagi ma'nolarning dalolatidan sababsiz bosh kiyim kiymay namoz o'qish makruh deb aytganlar.

Alloh taolo A'rof surasi 26-oyatida: “**Ey, Odam bolalari, batahqiq, sizlarga avratingizni to'sadigan libos va ziynat libosini nozil qildik. Taqvo libosi, ana o'sha yaxshidir. Ana o'shalar Allohnning oyat-belgilaridandir. Shoyadki eslasalar**”.

Shayx Polonpuriy hazratlari oyatdagi taqvo libosi taqvodor kishi kiyadigan libosi deb tafsir qilgan.

Xulosa

Xulosa o'laroq aytish mumkinki salsa tarixda asosan arablar va cho'l hududida yashovchi xalqlarning urfdagi bosh kiyimi hisoblanib, Islomdan avval ham mavjud bo'lgan. Islom kelgach boshqa musulmon xalqlar ham Rasululloh va sahobalariga ergashish o'laroq salsa kiyishni joriy qilishgan. Bunga faqatgina ko'r-ko'rona taqlid sabab bo'lman. Ko'plab rivoyat qilingan hadislar, asarlarda salsa kiyishning fazilatlari va targ'ib-u tarhiblar rivoyat qilingan bo'lib bu amalni joriy bo'lishida xizmat qilgan. Salla kiyishning fiqhiy hukmi borasidagi xuloasa shuki, namozda salsa kiyish mustahab hisoblanadi. Lekin Fiqh kitoblaridagi bosh yalang namoz o'qish makruh ekanligi borasidagi kelgan matnlar e'tiboridan do'ppi yoki boshqa bosh kiyim kiyib namoz o'qish sunnat hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mulla Ali Qori. Al-Maqola al-A'zba fi al-A'mama va al-Azaba. – Turkiya: Dar al-Lubob,2016.-J.IV
2. Mulla Ali al-Qori.Fath Bab al-Inoya. — Bayrut: Dor al-Arqam ibn al-Arqam,1997. — J.I
3. Imam Jaloliddin Suyutiy.Jome' al-Kabir. — Misr: Dor al-Sa'adah — J.11,
4. Al-Mavsu'at al-fiqhiyya al-Quvaytiyya. — Quvayt: Dor al-Sofva,1994. — J.30,